

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODIKASI

Atamurodova Qunduzoy G'aniyevna

Pirmatova Kamola Abdugaporovna

Boyqulova Gulmira Bahodir qizi

DTPI Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3BT-21guruh 3-bosqich talabasi

Tel: 97. 350-81-10

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish, og'zaki va yozma nutqda ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish o'quvchilarning ham nutq qobiliyatining ham to'g'ri fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shunda o'quvchilar o'z nutqida so'zlarni ongli qo'llay oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqola so'z turkumlarini boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'rgatish metodikasi haqida.*

Kalit so'zlar: *so'z turkumlarini o'rgatishning mohiyati, boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganish bosqichlari, ot so'z turkumini o'rgatish, boshlang'ich sinf, maktab*

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumini o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan asosiy mehnat va e'tibor talab qiladigan jarayondir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik atik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi yoki so'z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo'llashni talab etadi, ya'ni grammatik nazariya grammatik atik to'g'ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o'stirishga amalda tatbiq etish uchun o'rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o'stirish darsning mazm unida va qo'llanilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi. Ona tili darsi o'quvchilar taffakurini o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o'tkazish tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Masalan: „Ot“ mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Til hodisasi sifatida o'ning xususiyatlari, uni

o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oigan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ulami o'rganish izchilligi belgilangan.. Shu bilan birga, „Ot“ mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1 —2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladi, ma'nolarini hisobga oigan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim?fyoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi). O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni, ularni so'roq berish bilan ajratishni o'rganadilar, o'quvchilarda mavhum grammatik tafakkur o'sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi. 2-sinfda otlarning leksik ma'nosi, atoqli va turdosh otlar (atamasiz) haqidagi bilim chuqurlashtiriladi. 3-sinfda „Otlar, ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi“ ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda: 1) birlik va ko'plikda qo'llangan otlarning ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi oldan ko'plik shaklidagi va, aksincha, ko'plikdagi oldan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga oigan holda, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi. 4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi:

- 1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish
- 2) ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish;
- 3) har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

Biror mavzu yoki ma'lumotni o'quvchilarga qanday usulda yetkazib berish bu o'qituvchining pedagogik mahoratidir. O'z ona tilida ravon gairadigan, nutq madaniyatiga amal qiladigan, o'z nutqining sofligini saqlay oladigan yoshlarni tarbiyalash har bir pedagogning bosh maqsadi bo'lishi kerak. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar predmetlarni va ularni nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar. So'zning leksik ma'nosi (har bir so'z ma'no bildirishi)ga e'tibori oshiriladi, ma'nolarni hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni gruppalash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida gruppalash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash, abstraklashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, gramatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini

bilmaydilar, soʻzning leksik maʼnosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham oʻzlashtirish zarur. Keyingi bosqichda otning leksik maʼnolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi. (kim yoki nima soʻrogʻiga javob boʻlishi, predmet bildirishi tushuntiriladi) Oʻquvchilar kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan otlardan farqlashni oʻrganadilar. Bu bosqichda ular soʻzlarni soʻroq berish bilan farqlashni bilib oladilar, bolalarda mavxum grammatik tafakkur oʻsib boradi. Bolalarda koʻpgina atoqli otlarni bosh harf bilan yozish koʻnikmasi shaklanib boradi. 2-sinfda otlarning leksik maʼnosi, atoqli va turdosh otlar haqidagi bilim chuqurlashtiriladi va sistemalashtiriladi bolalar otlarda son bilan tanishtiriladi. “Ot” tushunchasini shakllantirish uchun shu soʻz turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik gruppalariga ajratish, barcha otlarga xos boʻlgan belgilarni koʻrsatish, ularning nutqimizdagi rolini ochish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni oʻrganishga bagʻishlangan birinchi darslardayoq predmetlarni bildiradigan soʻzlar sistemaga solinadi. Shu soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan belgilar aniqlanadi. Bu soʻzlar predmetlarni bildirib, kim? Yoki nima? Soʻrogʻiga javob boʻladi. Dasturga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini sifat va boshqa soʻz turkumlaridan yasalgan mavxum maʼnodagi (yaxshilik, goʻzallik, ishonch, oʻkinch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va oʻquvchilar qiziqib soʻrasalar, otlar bolalar oʻrgangan belgilari asosida nima soʻrogʻiga javob boʻlishi, predmet nomini bildirishi tushuntiriladi. Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini koʻrsatish uchun oʻqituvchi oʻqish kitobidan matn shu soʻzlarsiz oʻqishni topshiradi. Oʻquvchilar matn otlari tushirib qoldirilib oʻqiganda, matn mazmunini tushunib boʻlmasligini anglaydilar. Xlosa chiqariladi: ot atrofimizni oʻrab olgan predmetlarning nomi, bu soʻzlarsiz bir-birimizga oʻz fikrimizni tushuntira olmaymiz.

Boshlangʻich sinflarda otni oʻrganish vazifalar.

- 1."Ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish
- 2.Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan (shaxs bildirgan) otlardan nima?soʻrogʻiga javob boʻlgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash koʻnikmasini hosil qilish;
- 3.Kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qoʻyilgan nomlar va geografik nomlarni bosh xarf bilan yozish koʻnikmasini shakllantirish;
- 4.Otlarda son (otning birlik va koʻplikda qoʻllanishi)bilan tanishtiris.
- 5.Otlarni egalik qoʻshimchalari bilan toʻgʻri qoʻllash koʻnikmasini shakllantirish;
- 6.Otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish.

Ot gapda boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda qoʻshimchalar bilan oʻzgarishi ancha oldindan kuzatilib boriladi. Chunki, oʻquvchilar 1-sinfdayoq soʻz formalarining oʻzgarishi bilanamaliy tanishadi, ammo ular soʻz formasi nimaligini hali bilmaydi. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi (soʻz oʻzgartuvchi) qoʻshimchalar bilan tanishadi, bu qoʻshimchalar gapda soʻzlarni bogʻlash uchun xizmat qilishi tushunib boradi. III sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli foydalanish vakelishik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozishga oʻrgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda oʻrganiladi: 1.otlarning kelishiklar bilan



turlanishi haqida tushuncha berish;2.ko`plikdagi otlarning turlanishini o`rgatish; 3.har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o`rganish va u bilan bog`liq holda kelishik qo`shimchalarining yozilishi haqida ko`nikma hosil qilish.

.Xulosa qilib shuni aytishim joizki, boshlang`ich sinflarda ona tili va o`qish savodxonligi darsining o`tilishi katta ahamiyatga ega. O`quvchilarning o`qib tushinishi, tinglab tushinish, yozish savodxonligini, og`zaki va yozma shaklda fikrlarini yetkazib berishga bog`liqli so`z boyligini boyitishga, to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashi, o`z fikrini tortinmasdan yetkazib berishi uchun yordam beradi.Albatta, bunday bilim va ko`nikmalarning boshlang`ich sinf davridayoq shakllanib borishi, ertangi kuni o`zi va mamlakatimiz uchun foydali kasb egasi bo`lishiga yo`naltiradi. Shuning uchun ham, biz, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`z mutaxassisligimizni chuqur o`rganib, ertangi yosh avlodga chuqur bilim berib, qiziqishlaridan kelib chiqib, to`g`ri yo`lga boshlashimiz va kelajakda yurtimizga foydali mutaxassis bo`lib yetishishiga sababchi bo`lmog`imiz darkor

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi maktab ta`limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektordagi nutqi.

2.K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009.

3.Л.И.Рахматуллаева. Методика преподавания родного языка. –Т.: Учебное пособие. МолияИктисод, 2007.4.Internet resurslari (Ziyonet